



INNOVATSION IQTISODIYOTDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASI SAMARADORLIGI MASALALARI

i.f.d., prof. Shadiyeva Gulnora Mardievna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
ORCID: 0000-0001-7078-8815
gulnora.shodiyeva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada innovatsion iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasining samaradorligi muhokama qilinadi. Xizmat ko'rsatish sektori hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmog'iga aylangan bo'lib, uning samarali rivojlanishi innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga alohida ahamiyat beradi. Maqolada innovatsion iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasidagi yangi yondashuvlar, samaradorlikni oshirishning zamonaviy usullari va sektorda yuz berayotgan o'zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi, texnologik innovatsiyalar va raqamli iqtisodiyot bilan integratsiya masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion iqtisodiyot, xizmat ko'rsatish sektori, samaradorlik, raqamli iqtisodiyot, texnologik innovatsiyalar, raqobatbardoshlik, iqtisodiy o'sish.

ВОПРОСЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ СФЕРЫ УСЛУГ В ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКЕ

д.э.н., проф. Шадиева Гульнара Мардиевна
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В данной научной статье рассматриваются вопросы эффективности сектора услуг в инновационной экономике. Сектор услуг является важной составляющей современной экономики, и его эффективное развитие напрямую зависит от внедрения инновационных технологий, повышения конкурентоспособности и обеспечения экономической стабильности. В статье анализируются новые подходы к развитию сектора услуг в инновационной экономике, современные методы повышения эффективности и изменения, происходящие в этой сфере. Также рассматривается вклад сектора услуг в экономический рост, вопросы технологических инноваций и интеграции с цифровой экономикой.

Ключевые слова: инновационная экономика, сектор услуг, эффективность, цифровая экономика, технологические инновации, конкурентоспособность, экономический рост.

ISSUES OF EFFICIENCY OF THE SERVICE SECTOR IN THE INNOVATIVE ECONOMY

*DSc, prof. Shadieva Gulnara Mardiyevna
Samarkand Institute of Economics and Service*

Abstract. *This scientific article discusses the issues of service sector efficiency in an innovative economy. The service sector has become an essential part of the modern economy, and its effective development depends on the introduction of innovative technologies, increased competitiveness, and ensuring economic stability. The article analyzes new approaches to the service sector's development in the innovative economy, modern methods of enhancing efficiency, and the changes occurring in this field. It also examines the contribution of the service sector to economic growth, technological innovations, and integration with the digital economy.*

Keywords: *innovative economy, service sector, efficiency, digital economy, technological innovations, competitiveness, economic growth.*

Kirish.

Innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi hozirgi kunda butun dunyo miqyosida iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Jahon bo'ylab ko'plab davlatlar iqtisodiyotlarining asosiy tarmog'iga aylangan xizmat ko'rsatish sektori o'zining tez o'sishi, diversifikatsiyasi va yuqori qo'shimcha qiymat yaratish qobiliyati bilan ajralib turadi. Xizmat ko'rsatish sektori faqatgina iqtisodiy o'sishning asosiy tarmog'i sifatida emas, balki jamiyatning ijtimoiy farovonligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynamoqda. Bu sektor odamlarning turmush tarzini yaxshilash, ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Xizmat ko'rsatish sohasining muvaffaqiyatli rivojlanishi mamlakatning umumiy iqtisodiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion iqtisodiyot, o'z navbatida, yangi texnologiyalar va ilg'or yondashuvlar orqali rivojlanadi. Bugungi kunda innovatsiyalar, ayniqsa, raqamli texnologiyalar xizmat ko'rsatish sohasiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili kabi yangi texnologiyalar xizmat ko'rsatish jarayonlarini samarali qilish, xizmatlarning sifatini oshirish va ularning xarajatlarini kamaytirishga yordam bermoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirish, yangi bozorlarni egallash va mijozlar ehtiyojlariga yanada moslashish imkonini beradi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasining samaradorligini oshirish, yangi innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va joriy etish muhim iqtisodiy vazifa hisoblanadi. Soha samaradorligi nafaqat xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar daromadining oshishiga, balki davlat iqtisodiyotining umumiy samaradorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatish sektori iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ta'sir o'tkazib, ularni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, transport, logistika, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi xizmatlar boshqa sohalarning o'sishi va rivojlanishiga zamin yaratadi. Yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar xizmat ko'rsatish sohasining sifatini oshirishda muhim omil bo'lmoqda.

Xizmatlarni raqamlashtirish va onlayn platformalar orqali xizmat ko'rsatishning rivojlanishi mijozlarga xizmat ko'rsatishda yangi darajaga olib chiqadi. Mijozlar uchun qulaylik yaratish, vaqtni tejash va xizmatlarga kirishni osonlashtirish orqali raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Bundan tashqari, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish yordamida xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish, xizmat sifatini yaxshilash va mijozlarga individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi xizmat ko'rsatish sohasini yanada takomillashtirishga olib kelmoqda. Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, mijozlar xulq-atvorini o'rganish, xizmatlar sifatini baholash, shuningdek, yangi xizmatlarni taklif qilish sohada raqobatni kuchaytirib, sohaning

samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot xizmat ko'rsatish sohasi bilan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'rtasida yaqin aloqalarni o'rnatishda ham muhim rol o'ynamoqda. Shu sababli, innovatsion iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasining samaradorligini oshirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham dolzarb ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasining samaradorligini oshirishga qaratilgan turli strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Bu strategiyalar yangi texnologiyalarni joriy etish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish, raqamli transformatsiyani amalga oshirish va xizmat sifatini doimiy ravishda oshirishni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sektoridagi innovatsion yechimlar, samaradorlikni oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan strategiyalar va raqamli iqtisodiyotning ta'siri tahlil qilinadi. Hozirgi kunda innovatsion faoliyatning yutuqlaridan samarali foydalanish davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini barqaror rivojlantirishning muhim omili bo'lib bormoqda. Innovatsiya, o'z navbatida, yangi texnologiyalar, g'oyalar va metodlarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratishga olib keladi. Bu jarayon esa, iqtisodiy o'sish va rivojlanishning turli yo'nalishlarida qo'shimcha qiymatni shakllantirishga xizmat qiladi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida innovatsion rivojlanishga alohida e'tibor berilgan.

Ushbu strategiyaning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiyalash, yuqori qo'shimcha qiymatga ega texnologiyalar va yangi sohalarni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat. Strategiyada belgilangan muhim yo'nalishlardan biri — innovatsion infratuzilmalarni rivojlantirish, yangicha ishlab chiqarish usullari va yangi bozorlarni ochishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishdir. Buning uchun, texnologik innovatsiyalarning rivoji, yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga intilish muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlar faqat iqtisodiyotning samaradorligini oshirishga emas, balki ijtimoiy sohada ham ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Masalan, sog'liqni saqlash, ta'lim, energetika, transport, agrosanoat va boshqa sohalarda yangi texnologiyalarni joriy qilish natijasida xizmatlar sifati oshadi, xalqning turmush darajasi yaxshilanadi.

Bu esa, o'z navbatida, innovatsion rivojlanishning umumiy ta'sirini kuchaytirib, O'zbekistonning global bozordagi raqobatga barqaror va ishonchli ishtirokchi sifatida mavqeini mustahkamlaydi. Hammamizga ayonki, innovatsiyalarning taraqqiyotga qo'shgan hissasi juda katta va bu jarayonlarni samarali boshqarish, ularni har bir sohada amaliyotga joriy qilish, mamlakatni global iqtisodiy tanlovlarga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, innovatsiyalarni rivojlantirish va amalga oshirish orqali O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha katta qadamlar tashlanmoqda. Hozirgi kunda respublikamizda "xizmat ko'rsatish sohasini tezkor rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotda xizmatlarning o'rni va ulushini ko'paytirish, shuningdek, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, avvalo, zamonaviy va yuqori texnologik turlarini hisobga olgan holda, tubdan o'zgartirish" dolzarb masala sifatida qaror topgan (Farmon, 2022).

Xizmat ko'rsatish sohasi mamlakatimiz iqtisodiyotini mustahkam rivojlantirishning muhim manbai va omillaridan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, taraqqiy etgan davlatlarda xizmat ko'rsatish sohasining ulushi yalpi ichki mahsulot tarkibida sezilarli darajada ko'p, masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida 80 foiz, Buyuk Britaniya, Kanada va Fransiyada 70 foizdan ortiq, Germaniya, Italiya va Yaponiyada esa 68 foizga yaqin.

O'zbekistonda esa xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibidagi ulushi 2017-yilda 47,3% ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 43,4 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich

Toshkent shahri (60,9 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (39,3 %) kuzatildi¹. Bu davr mobaynida xizmatlar sohasining YAIMdagi ulushi pasaygan bo'lsa-da, soha umumiy iqtisodiy o'sishga ijobiy hissa qo'shishda davom etmoqda. Masalan, Xizmatlar ko'rsatish sohasida o'sish sur'ati 6,8 % ni tashkil etdi. Shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 10,2 % ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa 12,3 % ga hamda boshqa xizmat sohalari 4,5 % ga o'sdi. 2023-yilda xizmatlar ko'rsatish sohasining YAIM o'sishiga ijobiy hisssasi 2,6 foiz punktini tashkil etdi². Shuningdek, 2023-yilda O'zbekistonning umumiy YAIM hajmi 1,07 kvadrillion so'mni (taxminan 90,8 milliard AQSh dollari) tashkil etdi, bu esa 2022-yilga nisbatan 6% ga o'sishni anglatadi³.

Adabiyotlar sharhi.

Hizmat ko'rsatish sohasining innovatsion iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati o'rganilgan mavzu hisoblanadi. Jahon tajribasi, yuqori texnologik innovatsiyalar va raqamli transformatsiyalar bu sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omillardan biri sifatida o'rganilgan. Shunday qilib, ko'plab ilmiy ishlar va tadqiqotlar xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiyalash va innovatsion usullarni joriy qilishning iqtisodiy samaradorligiga oid muammolarni tahlil qiladi.

Xorijiy va o'zbekistonlik olimlar tomonidan xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsion rivojlanish, iqtisodiyot va texnologik transformatsiya sohaslarida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar xizmat ko'rsatish sohasining innovatsion jarayonlari, raqamli iqtisodiyotning ta'siri va samaradorligini yaxshilashga qaratilgan. Klassik iqtisodchilardan Porter (1990) "Competitive Advantage" va "The Competitive Advantage of Nations" asarlarida xizmat ko'rsatish sohasining raqobatbardoshligini tahlil qilgan. Xizmat ko'rsatish sohasidagi raqobatbardoshlik bo'yicha uning fikricha: "Xizmatlar sektori raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar va strategik resurslar, ayniqsa, texnologiyalarni samarali joriy etish zarur" deb ifodalaydi.

Schwab (2016) "The Fourth Industrial Revolution" asarida innovatsion iqtisodiyot va raqamli transformatsiyaning ahamiyatiga to'xtalib, uning fikriga ko'ra: "Raqamli transformatsiya va yangi texnologiyalar innovatsion iqtisodiyotda samaradorlikni oshiradi va xizmatlar sektoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi." Brynjolfsson va McAfee (2014) "The Second Machine Age" asarida texnologiyalar va avtomatizatsiyaning xizmat ko'rsatish sohasidagi ta'sirini o'rganib, o'z tadqiqot natijalariga ko'ra: "Yangi texnologiyalar va avtomatizatsiya xizmatlar sektoridagi samaradorlikni oshirib, yanada raqobatbardosh tizimlarni yaratadi" deb hisoblaydilar. O'zbekistonlik iqtisodchi olim Haidarov (2020) "O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasining innovatsion rivojlanish tendensiyalari" deb nomlangan ilmiy maqolasida xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy rivojlanishi va innovatsion jarayonlarning ta'siri bo'yicha tadqiqotlar olib borib, quyidagi fikrni ta'kidlagan: "Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalarni joriy qilish, raqamli iqtisodiyotga integratsiya va yangi texnologiyalarni qo'llash orqali sektorning samaradorligini oshirish mumkin". Iqtisodchi olim Sultonov (2018) "Innovatsion iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sohasining modernizatsiyalash jarayonlari" deb nomlangan ilmiy ishida O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiyalash va raqamli iqtisodiyotga integratsiya qilish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borgan.

Turg'unov (2019) esa "O'zbekistonda xizmatlar sektorining innovatsion rivojlanishi" mavzusida, xizmat ko'rsatish sektorining raqobatbardoshligini oshirish va innovatsiyalarni joriy qilishga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan. Bizning fikrimizcha, innovatsion iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasining samaradorligini oshirish, o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlar va raqobat jarayonlarida barqaror o'sishni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Texnologik

¹ https://www.qrstat.uz/uz/matbuot-xizmati/qo-mita-yangiliklar/14627-2023-yilda-yaimning-tarmoqlar-bo-yicha-tarkibida-xizmatlar-sohasining-ulushi-qanday?utm_source=chatgpt.com

² <https://invexi.org/uz/press/uzbekistan-s-gdp-for-2023-exceeded-more-than-90-8-billion-us-dollars>

³ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/20/gdp>

transformatsiya va raqamli inqilobning ta'sirida xizmat ko'rsatish sohasining yangilanishi va samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni, yangi texnologiyalarni va raqamli iqtisodiy strategiyalarni joriy qilish zarur. Bu borada xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ayniqsa, xizmat ko'rsatishning raqobatbardoshligini oshirish va samaradorlikni yaxshilash uchun qulay asos yaratmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.


"Innovatsion iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasining samaradorligi masalalari" mavzusi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish jarayonida quyidagi usullardan keng foydalanilgan: qiyosiy solishtirish, statistik va boshqa ma'lumotlarni tahlil qilish, iqtisodiy jihatdan taqqoslash, mantiqiy fikrlash, ilmiy umumlashtirish, ma'lumotlarni guruhlash, tahlil qilish va sintez qilish metodlari.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yangi O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish bosqichida xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati sezilarli darajada ortib, bu umumiy ishlab chiqarish va iste'molda xizmatlarning ulushining oshish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Buning asosiy sababi, texnologiyalar rivoji va iste'molchilarning talablarining o'zgarishi orqali xizmatlar qo'shimcha qiymatga ega bo'lib, ularning roli kundan-kunga muhimlashib bormoqda. Xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning muhim bo'lagidir, bu faqat odamlar ehtiyojlarini qondirish bilan cheklanmay, balki ish o'rinlari yaratish va innovatsiyalar rivojiga hissa qo'shishda ham muhim o'rin tutadi. Jumladan, 2022 yilda qabul qilingan "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezident qarori sohada kichik korxonalar va mikrofirmalarni imtiyozli kreditlash, imtiyozli soliq stavkalarini joriy etish, yangicha xizmat turlarini tashkil etish yuzasidan infrastrukturallarni yaxshilash hamda tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali xizmatlar xajmini yanada kengaytirish uchun rag'bat bo'lmoqda.

Olib borilgan chora-tadbirlar natijasida 2024 yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 42 524 birlik yoki ularning umumiy sonining 65,9 % i (64 553 birlik)


darajasida qayd etildi. 2024 yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 40 530 nafarga yoki ular umumiy sonining 95,3 % iga yetdi. (1 rasm)



1-rasm. 1-oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan (birlikda)

2024 yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 15 232,3 ming so'mga yetdi. 2023 yilning tahlil qilinayotgan davriga nisbatan o'sish

sur'ati 110,5 foizni tashkil etib, hajmi esa 10 679,6 ming so'mga oshdi. Eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida qayd etilgan – 67 993,7 ming so'm. Bu hududda o'sish sur'ati 114,1 foizni tashkil etdi. (2 rasm)



2 rasm. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi va o'sish sur'atlari (yanvar-sentabr)

Iqtisodiy tarmoqlarda xizmatlar sohasining o'sish sur'ati yuqori bo'lganligi sababli, ushbu sohadagi o'zgarishlar hamda rivojlanishlar kelgusida ham yanada o'sishi prognoz qilinmoqda.

Xizmatlar sohasi o'sish tendensiyasi-davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlardan oqilona foydalanish bilan birgalikda, sohaga keng qamrovda tadbirkorlarni jalb qilish va bu orqali aholi bandligini ta'minlash kabi muhim ahamiyat kasb etuvchi omillar yotadi.

Shuningdek, joriy yilning yanvar-avgust oylarida xizmatlar sohasida 40 168 ta (2022 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 2 244 taga ko'p tashkil etilgan) kichik biznes sub'ektlari tashkil etilib, 1 sentabr holatiga ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 336 613 taga yetdi.

Respublikamizda joriy yilning o'tgan 8 oyida xizmatlar hajmi 288,4 trln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,5foizga, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi esa 110,1foizga o'sib, 7,9 mln. so'mga yetgan.

Bugungi kunda, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarning 70,4 foizi xizmatlar sohasiga to'g'ri kelmoqda hamda jami band bo'lgan aholining 55 foizidan ortig'i xizmatlar sohasida ishlab kelishmoqda.

Toshkent shahrida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha tegishli choralarni ko'rish maqsadida Toshkent shahar hokimligi "O'zmilliybank" AJ bilan birgalikda ma'sul etib belgilangan so'ng, amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida quyidagilarga erishildi.

Jumladan, 2023 yilning 8 oyligida korxonalar va tashkilotlar tomonidan jami 116,8 trln.so'mlik xizmatlar ko'rsatildi. O'tgan yilning mos davrida ushbu ko'rsatkich 89,3 trln.so'mni, davriy o'sish esa 18,2 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, xizmatlar sohasida moliya, aloqa va axborotlashtirish, ta'lim va transport xizmatlaridagi o'zgarishlar boshqa turdagi xizmatlarga nisbatan yuqori o'sish bo'yicha natijalarni qayd etgan.

Misol uchun, quyidagi diagrammalarda bir necha yillik o'sish tendensiyalari bilan yuqori o'sishni qayd etgan xizmatlarni ko'rishimiz mumkin:

Aytish joizki, 2021 yildan bugungi kunga qadar sohada yangi loyihalarni tashkil etish, faoliyatini kengaytirish hamda ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida "O'zmilliybank" AJ tijorat banklari bilan birgalikda 28 mingdan ziyod tadbirkorlar uchun 50,4 trln.so'm, shundan joriy yilning 8 oyida 6,4 mingta tadbirkorlarga esa 13,3 trln.so'mlik kredit mablag'larni yo'naltirildi. Buning natijasida, 2023 yil 1 sentabr holatiga ko'ra, 28,4 mingta yangi tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etilib, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 76 mingtaga yetdi. Umuman olganda, 2021 yildan bugungi kunga qadar korxonalar va tashkilotlar tomonidan jami 357 trln. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi, xizmatlar hajmi esa 2020 yilga nisbatan 2 barobarga o'sdi.

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib aytganda, xizmatlar xajmining o'tgan yillarga nisbatan jadal o'sib borishi aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar xajmining yuqori o'sishiga hamda aholi daromadlarining ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Shu bilan birga, Toshkent shahrida 2023 yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali jumladan, yangi tadbirkorlarni joriy qilish, loyihalarni to'liq ishga tushirilishi, mavjud tadbirkorlar faoliyatini yanada kengaytirish, korxonalar faolitini rasmiy sektorga o'tkazilishini ta'minlash hamda soha yo'nalishlarida fuqarolarni o'zini o'zi band qilish orqali jami 445 mingta ish o'rinlarini yaratilishi ko'zda tutilgan.

Shu munosabat bilan, o'tgan 8 oy davomida yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida xizmatlar sohasida 290 mingta ish o'rinlarini yaratilganligi ijobiy natijalardan biridir.

Shuningdek, 2022 yil yakuni bilan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar xajmi 47 mln. so'mni tashkil etgan, ushbu ko'rsatkich joriy yil yakuni bilan 57 mln. so'mga yetkazilib, 2020 yilga nisbatan 3 barobarga ko'payishi prognoz qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan vazifa va topshiriqlarning ijrosini ma'sullar tomonidan o'z vaqtida samarali bajarilishi orqali maqsadli parametr ko'rsatkichlariga erishish natijasida aholi bandligini ta'minlash bilan bir qatorda, yangi xizmat turlarini joriy qilish, shuningdek aholi jon boshiga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini hamda tadbirkorlik sub'ektlarining sonini oshishiga sabab bo'lmoqda.

Bu orqali jamiyatimizning yashash tarzi yaxshilanib, ularning turmush darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlar yaratilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistonda mukammal innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va unda xizmatlar sohasining menejmenti hamda marketingini mukammal tarzda ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Jahon tajribasi va global innovatsion indeksda belgilangan yettita yo'nalishni hisobga olgan holda, innovatsiyalar bo'yicha kompleks yondashuvni amaliyotga tatbiq etish zarur. Ayniqsa, xizmatlar sohasidagi samaradorlikka innovatsion jarayonlarning ta'siriga alohida e'tibor qaratish va bu jarayonlarni ilmiy jihatdan keng ko'lamda o'rganish lozim.

Bundan tashqari, inson kapitali va aholining oliy ta'lim bilan qamrovini oshirish muhim masala bo'lib, mutaxassislar yetishtirishga katta e'tibor qaratish talab etiladi. Innovatsiyalardan samarali foydalanish uchun yetarli bilimga ega mutaxassislar va yuqori malakali kadrlar tarbiyalash zarur. Shu bois, xorijiy tajribani chuqur o'rganish, shuningdek, olimlar va ekspertlarning ilmiy-tahlillaridan foydalanish strategik ahamiyatga ega.

Xizmat ko'rsatish sohasining innovatsion iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Yangi texnologiyalar, raqamli innovatsiyalar va avtomatizatsiya xizmat ko'rsatish sektorining samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va sohadagi raqobatbardoshlikni kuchaytirishga ko'maklashadi. Shu sababli, xizmat ko'rsatish

sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etish va samaradorlikni oshirish masalalari dolzarb va strategik ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda xizmatlar ishlab chiqarish va iste'molining oqilona va samarali tarkibini shakllantirishga qaratilgan ushbu strategik qadamlar kelajakda aholi turmush darajasini yaxshilash va sifatini oshirishga, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/ Reference:

Brynjolfsson, E., McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies.

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida gi PF-60-sonli Farmoni.

Haydarov N. (2020). O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasining innovatsion rivojlanish tendensiyalari.

Sultonov A. (2018). Innovatsion iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sohasining modernizatsiyalash jarayonlari.

Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution.

Turg'unov Sh. (2019). O'zbekistonda xizmatlar sektorining innovatsion rivojlanishi.

Pardaev M.Q. (2009) Xizmatlarning ijtimoiy-iqqisodiy tabiati va uni rivojlantirishning o'ziga xos xususnyatlari. // Servis, Ilmiy-ommabopjurnal, No1, B.38-46..

Porter, M. E. (1990). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance.